

## **HARAKATCHANLIK VA GENDER: AYOLLARNING IJTIMOIY HARAKATLARDAGI ÖRNI .**

***Mirabdullayeva Ozoda***

*Andijon davlat pedagogika instituti  
maktabgacha ta'lif yonalishi 2- bosqich talabasi.*

***Ma'rupova Shaxzoda***

*Andijon davlat pedagogika instituti  
maktabgacha ta'lif yonalishi 2- bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan gender tenglik masalasi, olib borilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi yangiliklar keltirib o'tilgan.

**Kalit so`zlar:** Gender tenglik, qonun, nizo, Oliy majlis, Senat, Konstitutsiya, normativ-huquqiy hujjatlar.

Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiyadolat va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim jarayonlardan biridir. Xotin-qizlarga qarshi barcha turdag'i kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Aslini olganda Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu - erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidir. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarga nazar tashlasak ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yangi qabul qilinayotgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy Qonun loyihasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi kafolatlanmoqda. Bu esa mamlakatimizda haqiqatdan ham erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilayotganligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup>“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo‘yildi. Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Alovida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi ishlarning holati to‘g‘risida har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo‘yildi. Aytishimiz mumkinki, ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo‘lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes sub’ektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra , gender tengligi — bu patriarchal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sinqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Hayot shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanib, “ yo oila, yo ish” ,- degan fikrlar gender tengligiga to‘sinqinlik qiladi. Ko‘rib turibmizki, rivojlanishning eng o‘tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengiligiga erishish eng og‘ir masalalardan biridir. Ming afsuski, xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar, yo‘qotishlar (bunda ko‘pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatlarningni oldini olishda 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma’qullangandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonun

Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi mustahkamlab qo'yilgan. Ayollar haqida ko'p ulug' so'zlar aytildi. Ammo hayotda opasingillarimiz shu ulug' so'zlardagi kabi e'zoz ko'rmoqdam? Konstitutsiyamizni sinchiklab o'qisangiz, ayollar qadr-qimmati, huquqlari himoyasi bo'yicha juda insoniy me'yorlar belgilangan. Bugun turmushda ular ro'yobga chiqmoqdamiz.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opasingillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini buniyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini buniyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Sir emaski, yangi Uyg'onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma'naviyatning mustahkamligiga bog'liqdir. Mazkur o'tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta'limi va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga

ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olma ayollar jamiyat» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olma ayol» bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'limgan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo'sh urayotgan shukronalik va yurtdan, Yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko'chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda.

<sup>2</sup>Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Jeneva Konventsiyasi, «Xotin-qizlarning

<sup>2</sup> Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi Qonun

siyosiy huquqlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Nelyu-York Konventsiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konventsiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Yurtimizda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida», «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida», «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

**Xulosa** o'rnida aytish kerakki, Konstitutsiyamizda belgilangan ayollarning haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning qadr-qimmatini oshirish bo'yicha yuqoridan quyigacha amaliy tizim yaratildi. Mana shu yangi tizim samarali ishlashi uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2) Xalq so'zi [20 Noyabr 2020 ]
- 3) “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”
- 4) “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” gi Qonun
- 5) “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida” gi Qonun